

## QORA METALLURGIYA KORXONALARIDA INNOVATSIYALAR QO'LLASH SAMARADORLIGI OSHIRISH YO'LLARI

*ToshDTU i Xashimova S.N*

*.f.n., dots.*

**Mamatmo'minova Z.I**

*ToshDTU 3-kurs*

*Korporativ boshqaruv talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada innovatsiya tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati berilgan bo'lib qora metallurgiya korxonalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda innovatsiyalar qo'llash samaradorligi keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiya, qora metallurgiya, qora metallar ishlab chiqarish, samaradorlik, investitsiya, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, innovatsion investitsiya.*

### WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF INNOVATION IN FERROUS METALLURGY ENTERPRISES

**Annotation:** *In the article, the concept of innovation, its essence and importance, and the effectiveness of innovation application in the case of the characteristics of ferrous metallurgy enterprises is presented.*

**Key words:** *innovation, ferrous metallurgy, production of ferrous metals, efficiency, investment, modernization of production, innovative investment.*

### ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЧЕРНОЙ МЕТАЛЛУРГИИ

**Аннотация:** *В статье дано понятие инновации, её сущность и значение, а также представлена эффективность применения инноваций с учётом их особенности на предприятиях черной металлургии.*

**Ключевые слова:** *инновация, черная металлургия, производство черных металлов, эффективность, инвестиции, модернизация производства, инновационные инвестиции.*

Hozirgi kunda mamlakatlar iqtisodiyoti tarmoqlari korxonalarining iqtisodiy-xo'jalik faoliyatining umumiy tizimida innovatsion-investitsion faoliyati asosiy o'rinni egallovchi kategoriya sifatida urg'u berilmoqda. Innovatsion-investitsion faoliyatning yakuniy natijalari (ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot olib borishni talab etuvchi yangi mahsulotlarning ishlab chiqarish xajmining o'sishi) zamonaviy sharoitlarda mamlakatning iqtisodiy qudratini belgilaydi. Bu esa mahalliy sanoat korxonalarining

innovatsion va investitsiyaviy rivojlanishini butun bir tizim sifatida yondashuv asosida tashkil etish va boshqarishning uslubiy bazasini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu jihatdan, qora metallurgiya sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion-investitsion faoliyatning axamiyatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, qora metallurgiya sanoati yangi turdag'i maxsulotlarni ishlab chiqish va ularning xajmini oshirishda innovatsion-investitsion faoliyatning ulushini oshirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion usulda rivojlantirish bugunning eng dolzarb mavzusiga aylandi. Hozirgi kunga kelib, rivojlanayotan mamlakatlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, xomashyo resurslari eksportidan tayyor maxsulot eksportiga o'tish masalalari asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Ushbu ustuvor vazifani ado etishda mamlakatlar oldida ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, jahon bozoriga raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarish, shu asosda pirovard natijada olinadigan foydani yanada ko'paytirishga imkon beruvchi innovatsion jarayonlarni yuksaltirish hamda u bilan shug'ullanish zarurati tug'ildi.

Milliy ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshlik mavqeini mustahkamlashda innovatsiyalarni amalga oshirish zarurligi innovatsion faoliyatni ta'minlaydigan iqtisodiy mexanizmini yaratishni taqazo etadi. Milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri qora metallurgiya korxonalarini yanada rivojlantirish hisoblanadi. Bu soha mamlakatning iqtisodiy salohiyatini va mavqeini jahon bozorida yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

O'zbekiston qora metallurgiya sanoati yagona maqsadga qaratilgan, ya'ni iqtisodiyot tarmoqlarini metall maxsulotlariga oshib borayotgan talabini nafakat ichki bozorda qondirilishi, balki jahon bozorlarida ham eksport strategik mavqeini oshirishga qaratilgan. Ushbu yagona maqsadni amalga oshirishda bu soha ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган bir qancha tarmoqlar, kompaniyalar, tashkilotlar, hamda ularga xizmat qiluvchi infratuzilmalar elementlarni o'z ichiga qamrab oladi.

"O'zmetkombinat" AJ uzoq vaqt davomida O'zbekistondagi yagona qora metallurgiya korxonasi bo'lib keldi. E'tiborlisi, 2017-yilda mazkur tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 15,4 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 106,4 trillion so'mga yetdi. Ayni paytda tayyor prokat qora metallurgiya sanoatida eng talabgir mahsulotlardan biri bo'lib, u ayniqsa, yarim tayyor mahsulotlar bozorida o'ta qadrli hisoblanadi. Tayyor prokat qurilish, mashinasozlik, kimyo va oziq-ovqat sanoati, mebel ishlab chiqarish va interyer dizayni kabi faoliyat sohalarida keng qo'llaniladi, shuningdek, u metall konstruksiyalar va ramkalar yaratish uchun ham ishlatiladi.

Xalqaro qora metallardan tayyorlangan mahsulotlar bozoridagi yuqori raqobat muhitini sharoitida mamlakatimiz metallurglari eksport hajmini oshirish borasida katta yutuqlarga erishdi. Hisobot davrida mahsulotga bo'lган ulkan ichki talabni qondirish bilan bir qatorda eksport hajmi 40 foizdan ortiqqa o'sib, 152,8 million dollardan 215,1 million dollarga yetdi.

Ushbu tarmoqda maxsulot raqobatbardoshligi va eksportbopligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning yechimi, avvalom bor sohani tubdan texnik texnologik va innovatsion yangilanishini talab etadi. Bu o'z navbatida investitsiya jarayonini takomillashtirishni taqazo etadi. Bu esa yangi innovatsion manbalarni soxaga kiritishni lozimligini bildiradi.

Jahon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda mavjud korxonalarini rekonstruksiya qilmasdan, zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etmasdan turib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilamasdan turib iqtisodiy kelajagini, binobarin, aholi farovonligini yuksaltirishni ta'minlash mumkin emas.

Iqtisodiy rivojlanish dasturida sanoatning strategik muhim tarmoqlari bo'lgan yoqilg'i-energetika kompleksi, rangli va qora metallurgiya sohalarida jadal o'sishini ta'minlash maqsadida ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobidan samarali erishish nazarda tutilmoqda.

Iqtisodiyot narmoqlarini rivojlanishda bir qator vazifalar amalga oshirilishi taqozo qiladi:

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarining amalga oshirilishi yuzasidan qatiy monitoring o'rnatilish;

- o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan va innovatsiya texnologiyalari ishlab chiqarilishi va ularning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishini rag'batlantiradigan tadbirlar majmuasini amalda ishlatalishini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jixatdan yangilash, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni, iqtisodiy va yuridik javobgarligini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Demak, mamlakatimizda istiqboldagi bosh vazifalardan biri bo'lib iqtisodiyotni barcha soxalarida va boshqaruvda innovatsion jarayonlarni amalga oshirilishini keskin ravishda jadallashtirish va shu orqali iqtisodiyotimizni o'sish sur'atini barqaror yuqori darajasini ta'minlashdir.

Qora metallurgiya korxonalariga innovatsiyalardan samarali foydalanishda tarmoqda mavjud bo'lgan muammolar quyidagilar:

- metall chiqindilari xomashyosini tanqisligi sababli mavjud quvvatlardan foydalanish imkoniyatlariga nisbatan ancha past;

- ikkilamchi metall chiqindilari sifati doimiy ravishda yomonlashuvi natijasida po'lat navlariga belgilangan maxsus talablarga javob beruvchi po'lat ishlab chiqarish imkoniyatlarini cheklaydi;

- metall ishlab chiqarishda asosiy fondlarining yemirilish darjasini yuqoriligidacha qolmoqda.

Qora metallurgiya korxonalarini innovatsion imkoniyatlardan foydalanish asosida samarali rivojlantirishda quyidagi takliflar kiritiladi:

- istiqbolda qora metallar ishlab chiqarish xajmini oshirishni faqat ikkilamchi xomashyo xisobiga amalga oshirib bo'lmaydi va respublika ehtiyojlarini to'lik qondirish uchun yangi konlarni o'zlashtirish talab etiladi;
- barcha turdag'i xomashyodan yanada ko'proq va kompleks foydalanishni amalga oshirish;
- qora metallurgiya korxonalarini texnik qayta jixozlash va modernizatsiyalash jarayonlarini faollashtirish;
- tarmoqning eksport saloxiyatini kengaytirish (bir vaqtning o'zida import o'rnni bosish siyosatini o'tkazish);
- respublika qora metallurgiyasini innovatsion imkoniyatlari xisobiga iqtisodiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- tarmoq investitsiya loyihamashtirish maqsadida xorijiy investitsiyalari va kreditlarini keng jalb etish;
- mamlakatning qora metallar prokatiga bo'lgan extiyojini to'lik qondirishda respublikada mavjud bo'lgan mineral xomashyo resurslari zaxiralaridan foydalanish.

Yuqorida keltirilgan qora metallurgiya korxonalarini innovation imkoniyatlarining metall ishlab chiqarishda qo'llanilishi O'zbekiston qora metallurgiyasini istiqbolda yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Хашимова, Салима Нигматуллаевна. "Развитие черной металлургии Узбекистана в условиях модернизации национальной экономики." Молодой ученый 1-3 (2017): 24-26.
2. Якубова, Д. М., & Хашимова, С. Н. (2018). Экономико-математическое моделирование эффективности производства предприятий металлургической отрасли Узбекистана. Молодой ученый, (17), 213-215.
3. Nigmatullayevna, X. S. (2022). RESOURCE SAVING AT FERROUS METALLURGY ENTERPRISES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 133-137.
4. Хашимова С. Н. и др. МОДЕРНИЗАЦИЯ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОЙ МЕТАЛЛУРГИИ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ //Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума. – 2020. – С. 29.
5. [https://aza.uz/posts/ozbekistonda-qora-metallurgiya-eksporti-tobora-oshib-bormoqda\\_498410](https://aza.uz/posts/ozbekistonda-qora-metallurgiya-eksporti-tobora-oshib-bormoqda_498410)
9. Doniyorbek, N. (2023). BOLALAR UCHUN ZAMONAVIY SUV MUOLAJALARI MAJMUASINI YARATISH. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 523-527.
10. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). Qadimgi qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasini ilmiy tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 58-61.

11. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuratovna, J. E. (2023). The scheme of territorial placement of agglomeration commercial and household complexes in Uzbekistan. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 62-67.
12. Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. Journal of Architectural Design, 4, 27-31.
13. Elmuratovna, J. E., & Qo'ziyevich, E. I. (2023). BUXORO ARKINING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(2), 75-78.